# Ijarada yashovchi talabalar bilan suhbat

2020 - 2021 oʻquv yilida an’anaviy ta’lim shakliga qaytilganidan keyin aksariyati yordamga muhtoj talabalar institut yotoqxonasiga joylashtirildi. Shu bilan birga yotoqxonaga ehtiyoji boʻlmagan talabalar ham oʻzlarining moddiy ta’minotidan kelib chiqqan holda ijara asosida yashab kelmoqda. Aynan shunday talabalarning yashash sharoitlari bilan tanishish, muhitning qay darajada shakllanganligini aniqlash va uy egalari bilan suhbat oʻtkazish maqsadida "Gidromelioratsiya" fakulteti Gidrologiya daryo va suv omborlari talim yoʻnalishi 110-guruh murabbiyi Q.Eshquvatov talabalar istiqomat qilayotgan uylarga tashrif buyurdi. Suhbat jarayonida talabalarga oʻzlarini OTM talabasi ekanligini yodda tutishi, uyda tozalik va ozodalikka rioya qilishi, qoʻni-qoʻshnilar bilan ahil boʻlishi, ular bilan muloqotda yuqori madaniyat va xushmuomalalikka rioya qilish kerakligi toʻgʻrisida tushuntirishlar olib borildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**